

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

7 / 2020

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJAPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.


MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

- 2** B.X.BAYDJANOV. O'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik zaruriyati
- 4** Z.A.BAXADIROVA, E.R.NURTAYEV. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli yondashuvi
- 6** D.SH.RAXIMOVA. O'quvchi shaxsining psixologik salomatligi maktab psixologi faoliyatidagi ustuvor yo'nalish
- 8** N.X.VALIYEVA. Ijodiy qobiliyati yuqori bolalarni o'qitish muammolari
- 9** D.G.AZIZOVA. Autizm sindromiga ega bolalar
- 10** F.P.RAJABOVA. Yoshlarda xulq og'ishi muammosi ijtimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida
- 12** SH.J.TEMIROVA. Taqiqlangan faoliyatni bajarish hissini bartaraf etish
- 16** N.G.ODILOVA. Ijtimoiy yetuklik – bolalarning maktabga psixologik tayyorligining asosi sifatida
- 17** B.S.AXRAROV. Ijtimoiy muhitning o'smir shaxsining kreativ imkoniyatlari rivojlanishiga ta'siri
- 20** X.S.RAXIMOVA. Korreksion - pedagogik mashg'ulotlarda koxlear implantli bolalarni mustaqil faoliyatga tayyorlashning mazmuni va zamonaviy yondashuvlari
- 21** D.YO'LDOSHYEVA. Maxsus ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanishning xususiyatlari
- 24** S.UMAROVA. Maxsus maktablarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirishda logopedik o'yinlarning ahamiyati
- 25** N.MIRBOBOYEVA. Autizm – aqliy mutizm
- 26** O.F.HAYDAROVA. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish qobiliyatini tadqiq qilish hamda rivojlantirish yo'llari
- 27** J.XUDYOYQULOV. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'zaro munosabatlari muammosi
- 29** M.X.SAMIDJONOVA. Maktab o'qituvchisining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari
- 31** T.E.ASHUROVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda predmetlar olami orqali ijodkorlikni shakllantirish
- 32** D.R.TURAYEVA. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchining o'quvchilari haqidagi assotsiativ tasavvurlari
- 34** D.N.MAMATOV, H.S.YAKUBOVA, D.MUXAMEDJANOVA. STEAM ta'lim dasturi texnik taraqqiyotning asosiy poydevoridir
- 35** X.Z.ISMATULLAYEVA, R.B.DAMINOVA. Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi (dars ishlanmasi)
- 38** YU.G'.MAHMUDOV, A.TURSUNOV. Fizikadan ekologik mazmunda masala yechishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyatining bosqichli jarayonlari va aloqa turlari
- 40** A.A.ARTIKOV. Сравнительный анализ целевой точности технических приемов у футболистов высокой квалификации, выполняемых в соревнованиях и в тренировочных занятиях
- 42** K.A.ФАРФИЕВА. Интернет коммуникация как фактор формирования научного мышления



To'rtinchi davr – bog'langan nutqni rivojlantirish, murakkab matnlarni tushunishga o'rgatish ishlarini o'z ichiga oladi.

Kim? Kimlar sababchi?	Nima sodir bo'ldi?	Nega?	Oqibatda...
Men	Chaqirdim	Ovqat pishdi	Dasturxon atrofida hamma o'tiribdi
O'rtog'im	Irg'itdi	Olim so'radi	Koptok uchib ketdi
Akam	Mashinga o'tirdi	Ishga ketadi	U uzoqqa ketdi
Ukam	Velosipedga o'tirdi	Uchishni yaxshi ko'radi	Hovlida uchib yurdi
Dadam	Telefonni oldi	Telefon qilishdi	Kim bilandir gaplashdi.
Onam	Xamir qildi	Somsa uchun	Tushlikda hamma somsa yedi
Qo'shnimiz	Kirdi	Onamning yoniga kirdi	Ular gaplashib o'tirishdi.
Ayiq(ertak)	Yuribdi	Ovqat qidirdi	Asal topdi va yaladi.
Tulki(multifilm)	Yugurdi	Jo'jani quvdi	Jo'ja tulkidan yashirinib oldi.

Koxlear implantni ishga solishning dastlabki davrida korrektsiya ishlari – bu eshituv analizi – eshituv idrokini rivojlantirish-

ga, nutqiy va nonutqiy akustik signallarni eshitishga o'rgatishga bag'ishlanadi. Shu bilan birga bu davr ishlari nutqiy eshituvni rivojlantirish, o'z nutqini tushunish uchun asos va muhim ko'prikdir. Boshqa eshitish o'rni bosuvchi vositalarga nisbatan Koxlear implantant yordamida bolalar nutqni tushunish, gapirish, fikrlashga tez va oson o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, koxlear implantli bolalar bilan ishlaganda so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga ham e'tibor qaratish lozim. Buning uchun so'zlar, ayniqsa gaplarni ohangiga e'tibor berib talaffuz qilish zarur. Mazkur yondashuv orqali bolalarda so'zlarni bo'g'inlarga va gaplarni qismlarga ajratish ko'nikma va malakalari shakllanadi. So'zlarni bo'g'inlarga ajratishning an'anaviy usuli qarsak chalishdan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu usul koxlear implantli bolaga oson va so'z tarkibini nazorat qilishga qulaydir.

Adabiyotlar

1. Королева И.В. Слухоречевая реабилитация глухих детей с кохлеарными имплантами. – СПб.: 2005.
2. Королева И.В. Прогноз эффективности слухоречевой реабилитации после кохлеарной имплантации у детей младшего возраста // Дефектология. 2002.
3. U.Fayzieva, D.Nazarova, F.Qodirova. T.Surdopedagogika (o'quv qo'llanma). "Sano standart" nashriyoti. 2012.
4. www.cochlear.com

MAXSUS TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING XUSUSIYATLARI

D Yo'ldoshyeva, Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti "Defektologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

В данной статье рассматривается вопрос применения интерактивных педагогических технологий в специальном образовании.

Ключевые слова и понятия: педагогическая технология, специальное образование, анализ, обобщение, внедрение в практику, коррекционная педагогика, интерактивные методы.

This article discusses the issue of using interactive pedagogical technologies in special education.

Key words and concepts: pedagogical technology, special education, analysis, generalization, implementation into practice, correctional pedagogy, interactive methods.

Maxsus ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, tahlil qilishi va umumlashtirishi, amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Pedagogika amaliyotiga qator tushunchalar kirib keldiki, ularning ma'nolari va joriylanish imkoniyatlari turlichadir. Amaliyotda "introfaol" (ta'sirning tashqariga yo'naltirilishi) ta'limda asosan bolalarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. Ya'ni ta'lim o'quvchilar jamoasi tomonidan tashkil etilib, ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar.

"Interfaol", ya'ni o'zaro ta'sir, o'zaro faollik, o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtalarida o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihati – bu har bir pedagogning o'z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning muhim xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning o'quv faolliklarini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlardan, interfaol metodlardan samarali foydalana olishi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlarini bevosita maxsus ta'lim tizimiga tatbiq etganda tamoyillarning o'rni seziladi. Chunki korrektsiya pedagogikasining himoyalovchi xarakterdaligi bois, uning o'ziga xos tamoyillari mavjuddir. Demak, endi biz maxsus ta'lim tizimida pedagogik texnologiyaning mazmunini sharhlashdan oldin me'yorda rivojlanayotgan bolalar ta'limi-pedagogika va uning maxsus korrektsion pedagogikadan farqli o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tmoq'imiz lozim.

Bugungi kunda ekstrafoal, faol va introfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi, ularning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim uchun o'ta muhim sanalgan o'zaro hamkorlik asosida ta'lim olish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar asosiy o'rin tutayotganligining sababi shuki, ular hozirgi kunda ta'lim samaradorligini ta'minlashning eng optimal yo'lidir. Interfaol ta'lim muhitida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro sheriklik munosabatlarining teng huquqlilik asosiga qurilishi, "shu erda va hozir" qayta aloqaning yuzaga kelganligi, ma'lum muammo bo'yicha ko'plab fikrlarning jamlanganligi umumiy aloqa muhitini hosil qiladi. Ilmiiy bilimlarning muayyan tizimga asoslanganligi ta'lim jarayonida ham ularni muayyan tartibga etkazib berilishini taqozo qiladi.

Interfaol metodlarning barchasi muayyan darajada didaktik imkoniyatga ega. Shu sababli ta'lim turi, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi, ko'lami va boshqa jihatlarga ko'ra interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir. Quyida ayrim interfaol usullarni keltiramiz:



1. "Rolli o'yin". Ushbu usul qo'llanilganda rollar o'quvchilar tomonidan ijro etilganligi bois, ular o'zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlar to'g'risida to'la tasavvurga, shuningdek, amaliy ko'nikmalarga ega bo'la oladilar. Didaktik xarakterdagi o'yinlarning rollar asosida bajarilishi o'quvchilarda mas'uliyat hissini ham shakllantiradi, zero, mas'uliyatni his qilmasdan turib, ma'lum rolning xarakterini ochib berish mumkin emas.

Rolli o'yinlarning kutilgan samarani bera olishi uchun bir qator shartlarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, o'quvchilarga foydalanish nazarda tutilayotgan rolli o'yin haqida ma'lumot berish, o'yin shartlari bilan tanishtirishda ko'rsatmalarning qisqa, aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish; rollar taqsimlangandan so'ng tayyorlanish uchun aniq vaqt (reglament)ni belgilash; kutilayotgan natijani aniqlashtirish; agar rolli o'yin bir necha guruh ishtirokini talab etadigan bo'lsa, u holda har bir guruhning taqdimoti uchun oldindan vaqtni belgilab olish; o'yinga jalb qilinmagan o'quvchilarning kuzatuvchi yoki ekspert sifatida muayyan vazifalarni bajarishlari yuzasidan topshiriq berish; rolli o'yin ijro etilgandan so'ng albatta u yuzasidan muhokamani tashkil etish; muhokama jarayonida o'quvchilarning e'tiborini u yoki bu ishtirokchining aktyor sifatidagi faoliyatiga emas, balki sinfda qanday hodisa sodir bo'lganligiga qaratish lozim.

S.Kallagan quyidagi shartlarga amal qilinishini rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlovchi omillardir deya hisoblaydi:

- 1) jamoa a'zolari o'rtasida samimiy ishchanlik muhitini qaror toptirish;
- 2) qo'yilgan muammoning ishtirokchilar tomonidan ijro etilishida ijodiy yondashishini cheklamaslik;
- 3) ishtirokchilarning erkin, bemaolol, o'ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;
- 4) xonada harakatlanish uchun qulay sharoitning mavjud bo'lishi.

O'yinlar yuzasidan muhokamaning tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi uchun o'quvchilarning e'tiborini aniq holatlarga qaratish maqsadida bir necha savollarni o'rtaga tashlash va o'quvchilarning ularga aniq lo'nda va qisqa javob bera olishlarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

G.K.Selevko o'yinlarning psixopedagogik jarayon sifatida didaktik imkoniyatlariga yuqori baho berar ekan, ularning quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi deb hisoblaydi:

- 1) o'ynash uchun olingan rollar yoki o'yin turi;
- 2) tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yinli harakatlar;
- 3) muayyan predmet (jism)larni o'yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash;
- 4) o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi real munosabatlar mazmuni;
- 5) shartli ravishda yaratilgan syujet (o'yin syujeti).

II. Ishbilarmonlik o'yinlari ham interfaol metod sanaladi.

O'yinlarni tashkil etishda o'qituvchidan ularni to'g'ri tashkillashtirish, natijalarini bashoratlay olish va zarur xulosalarni chiqarish layoqatiga ega bo'lish talab etiladi.

Ishbilarmonlik o'yinlari muayyan amaliy muammolarni bartaraf etishga xizmat qilishi bilan birga o'quvchilarda ma'lum faoliyatni tashkil etish usul va ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ishbilarmonlik o'yinlarini tashkil etish uchun maxsus maydon yoki xonalarning maxsus jihozlanishi talab etiladi. Shu sababli ishbilarmonlik o'yinlari ham o'zaro muloqot va fikr almashishni yuzaga keltiruvchi interfaol xususiyatga ega.

Ishbilarmonlik o'yinlari ularning natijalarini umimlashtirish, tahlil qilish hamda amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega jihatlarni ajratib ko'rsatish bilan yakunlanadi. O'yinlarning umumiy jihatlarini umimlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Ishbilarmonlik o'yinlari muayyan amaliy muammolarni bartaraf etishga xizmat qilishi bilan birga o'quvchilarda ma'lum faoliyatni tashkil etish usul va ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Jumladan, a) ta'lim jarayonida o'quvchilarda o'zaro muloqot, birgalikda harakat qilish, jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish

maqsadi qo'yilgan bo'lsa, u holda ishbilarmonlik o'yinlari samarali sanaladi; b) aynan ishbilarmonlik o'yinlari tashqi ta'sirlarni qabul qilish, loyihalash va ishbilarmonlik munosabatlarining andozasini yaratish imkoniyatiga ega; v) o'yin jarayonida o'quvchilarda nafaqat tashkilotchilik, shu bilan birga amaliy va ma'lum rollarni texnik jihatdan mukammal ijro etish layoqati rivojlanadi.

Masalan, matematika darsida ushbu usul asosida quyidagicha ishlashni tavsiya etamiz:

Mavzu: "Biz bilgan narsalar". Maxsus ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflari uchun mos keladi. Asosan geometrik shakllar (matematika), predmetlarning xususiyatlari va nomlarini mustahkamlashda (nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish), predmetlarni nomlarini aytib, bog'lab matn tuzish (ona tili) va boshqa ta'limiy maqsadlarga erishishda qo'llash tavsiya etiladi.

Dars uchun kerakli jihozlar: A4 formatdagi qog'ozlar, rangli qog'ozlar, qaychi, elim.

O'quvchilar 2 ta guruhga ajratiladi (maxsus maktablarda sinflarda o'quvchilar soni 14 nafardan ortmaydi, odatda 12 nafar).

Topshiriq: 10 ta A 4 formatdagi qog'oz va 4 xil rangli 1 tadan qog'oz, 1 ta qaychi va 1 ta elim yordamida ixtiyoriy narsa yasash. Qaysi guruh eng ko'p narsa yasasa, shu guruh g'olib sanaladi. Ishni rejalashtirishga 10 daqiqa, bajarish uchun 15 daqiqa, taqdimot uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Ushbu dars 2 soatga mo'ljallanadi. 1-soatda rejalashtirilgandek guruhlarda ish tugagach, taqdimot o'tkaziladi. G'olib guruh taqdirlanadi. Eng muhim vaziyat 2-soatda, ya'ni o'quvchilar o'zlari yasagan predmetlarni bog'lab, bog'langan hikoya tuza-dilar, ushbu hikoyasini nomlaydilar. Agar matematika darsi bo'lsa, unda yasalgan predmetlarning shakllari va nechtaligi so'ralib, ular ishtirokida masala tuzish talab etiladi. Ushbu dars amaliyotda sinab ko'rilganda, o'qituvchi va tarbiyachilarga quyidagi savol bilan murojaat etildi: ushbu usul Siz va o'quvchilarga nima berdi? O'qituvchi va tarbiyachilar asosan quyidagi mazmunda javob berdilar:

– o'quvchilarning o'zaro hamkorligi muloqotga ehtiyojni tug'dirdi;

– o'quvchilar o'zaro yordam asosida jarayonda teng ishtirok etdilar;

– ular o'zlari yasagan narsalar haqida gapirishga juda qiziqar ekan;

– jamoa oldidagi ma'suliyat hissini tarbiyalashga keng imkoniyat yaratildi;

– o'quvchilarda ishni rejalashtirish, tizimli ishlash ko'nikmalari shakllandi;

III. Debatlar. Muayyan mavzulardan biri bo'yicha o'quvchilar ishtirokida muhokamani tashkil etish imkonini berib, ulardan ko'proq sinfdan tashqarida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Muhokama jarayonida o'quvchilar qo'yilgan muammo yuzasidan shaxsiy qarashlarini ifoda eta olishlari zarur bo'ladi. Debatda o'quvchilar guruhli yoki individual shaklda bahsga kiritishlari mumkin va unda bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlarning bildirilishi tabiiy sanaladi.

Ta'lim jarayonida debatlardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda bahs-munozara yuritish layoqatini shakllantirish, shuningdek, ularning shaxsiy fikrlarini mustaqil, erkin bayon etish, o'z fikrini himoyalash, asoslash, muayyan holatlarga muvofiq aniq xulosalarga kelish ko'nikmalarini tarbiyalashdan iboratdir. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda debatlaridan foydalanish o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish bilan birga ularning og'zaki nutqlarini o'stirishga ham yordam beradi.

Debatlar ham ma'lum shartlarga amal qilingandagina kutilgan ta'limiy natijani beradi. Ya'ni:

1) o'quvchilar belgilangan vaqtdagina gapirish imkoniga ega bo'ladilar;

2) bir o'quvchi so'zlayotganda, qolganlar uni diqqat bilan eshitishlari, fikrini bo'lmasliklari maqsadga muvofiqdir, zero, ana shundagina sinf (auditoriya)da ortiqcha shovqin yuzaga kelishining oldi olinadi va bildirilgan fikr boshqalar tomonidan to'g'ri qabul qilinadi;

3) so'zlayotgan o'quvchi "raqib" guruh yoki o'quvchiga qarab



emas, balki o'qituvchi yoki umuman barcha o'quvchilarga qarab fikrlarini bayon etishi lozim.

Debatda imkon qadar o'quvchilarning xohish-istaklari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mavzuni tanlash va savollarni tuzish pedagogik jihatdan samarali bo'ladi. Bahs-munozaralar uchun quyidagi savollarni o'rta tashlash mumkin:

Debatda ishtirok etish natijasida tinglovchilarda muammoni aniqlash va ajratish qobiliyati, dalillar va fikrlarni aniqlash mahorati, tanqidiy fikr yuritish, muhim bo'lgan ma'lumotni muhim bo'lmagan ma'lumotdan ajratish, sabab va uning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga baho berish, xulosa chiqarish, muammolarni ajratish va samarali yechim topish malakalari, o'zining fikr yuritishiga, tafakkur jarayoniga baho berish ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nutq so'zlash madaniyati shakllanadi.

Ushbu usuldan maxsus maktab, maktab-internatlarida tarbiyaviy soatlarda "Nima yaxshi-yu, nima yomon", "Bu mening qarorim" kabi mavzularda yoki badiiy asarlarning mohiyatini o'zlashtirishda, mustahkamlash darslari jarayonida qo'llash mumkin.

IV. Dasturiy ta'lim taqdim etiluvchi o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirish darajasini baholash imkonini beradi. Dasturiy ta'limda axborotlar u qadar katta bo'lmagan hajmda alohida-alohida chop etilgan material ko'rinishida yoki kompyuter yordamida o'quvchilarga taqdim etiladi. Har bir material o'rganilib chiqilgandan so'ng o'zlashtirilgan nazariy bilimlarga oid pedagogik masala yoki mashqlar bajariladi. Dasturiy ta'limning qulayligi shundaki, u o'quvchiga o'zi uchun qulay maromda harakatlanish imkonini beradi. Dastlabki blok materiallari o'zlashtirilgandan so'nggina navbatdagi blok materiallari o'zlashtiriladi.

Kompyuter ta'limi dasturiy ta'limning bir ko'rinishi sanaladi. Kompyuter o'quvchining javoblarini baholaydi hamda navbatdagi bosqichda uning uchun qanday materiallarni taqdim etish lozimligini aniqlaydi. Kompyuter ta'limining afzalligi shundaki, avval o'zlashtirilgan o'quv materialiga qayta murojaat qilish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kompyuter ta'limi taqdim etilgan o'quv materialining o'quvchi tomonidan tezkor o'zlashtirish imkonini beradi. Ayni o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, kompyuter ta'limi bo'yicha o'quv materiallarini tayyorlash iqtisodiy jihatdan qimmatga tushsa-da, ulardan faol va samarali foydalanish orqali sarflangan xarajatlarni tezda qoplash mumkin. Shunga ko'ra, zamonaviy sharoitda kompyuter ta'limi pedagog xodimlarning kasbiy malakalarini oshirish jarayonida qo'llaniluvchi ta'limning boshqa faol metodlarining ajralmas qismi bo'lib qolishi zarur.

Nemis olimlari tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar dasturiy ta'lim o'quvchiga o'quv materialini yetarli darajada tez o'zlashtirish imkonini bergani holda, uning natijalari ta'limning boshqa faol metodlarini qo'llash orqali erishilgan natijalardan ko'ra hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasligi lozimligini tasdiqladi.

V. Bahs-munozaralar (o'quv bahs-munozaralari) tarkibiga 6 nafardan 15 nafargacha o'quvchini olgan guruhlarda guruhli o'quv bahs-munozaralarini tashkil etilishini anglatadi.

Shaxs ma'naviy-axloqiy, ruhiy va kasbiy jihatdan hayotiy faoliyati jarayonida atrofdagilar bilan bahs-munozaraga kirishmay, ular bilan o'zaro fikr almashmay turib kamolotga erisha olmaydi.

Bahs jamoaviy munozara sifatida o'rganilayotgan o'quv materialining xususiyati, uning muammo darajasidan kelib chiqqan holda turli ahamiyat kasb etib, pedagogik amaliyotda u universal (turli sharoit va vaziyatlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan) hodisa sifatida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish imkonini beradi.

O'quv bahs-munozaralarini tashkil etuvchi o'qituvchiga odatda uning natijalari avvaldan ma'lum bo'lsa-da, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar uchun yangi bilimlarni izlash va ularning samarali o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'quv bahs-munozaralari ikki tomonlama xususiyat kasb etadi. Birinchidan, bahs-munozaralarni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltiradi va uni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni mazkur hamkorlikning samimiyligi va ochiq bo'lishi uchun sharoit yaratadi, ikkinchidan, o'qituvchi haqiqatni to-

pishga yo'naltirilgan izlanish jarayonini boshqaradi. Agar o'qituvchi bahs yuritilayotgan masala yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelishning uddasidan chiqsa, o'quv munozaralari samarali kechadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda o'quv bahs-munozaralarini samarali tashkil etilishini xarakterlovchi quyidagi umumiy xususiyatlarni qayd etib o'tish mumkin:

1) o'qituvchi-tashkilotchining ko'rilayotgan muammoni yuqori darajada tushuna olishi, shuningdek, o'quvchilarning mazkur muammoni yechish uchun yetarlicha amaliy tajribaga ega bo'lishlari;

2) o'qituvchi-tashkilotchining jiddiy metodik tayyorgarlikka egaligi bois ko'rilayotgan muammoni hal qilish darajasini bashoratlay olishi bu o'rinda o'qituvchi munozara jarayonida sust aralashib, aksincha, o'quvchilar faol ishtirok etishlari; o'qituvchi bahs-munozara jarayonini mahorat bilan boshqarib borishi maqsadga muvofiqdir;

3) o'quv bahs-munozaralarida maqsadga erishganlik va muhim natija – bu o'quvchilarning muayyan bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishlari, dialektik tafakkurlarining rivojlanishi bilan belgilanadi;

4) bilimlarning o'zlashtirilish manbalari bir necha bo'lib, o'quvchilar yoki o'qituvchi rahbarligida yoki bevosita uning yordamida mavjud bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib, quyida berilgan metod o'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda ular tomonidan muayyan o'quv material bo'yicha bilimlarning samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi. Metodni qo'llashning o'ziga xos jihati shundaki, bahs-munozaralar jarayonida o'qituvchi muammoning yechimini topish yo'llarini ko'rsatmaydi, aksincha, o'quvchilarning o'zlari uni topish yo'llarini izlaydilar, tamoyillar va yondashuvlarni asoslaydilar. Ana shu jihatiga ko'ra o'quv bahs-munozaralari o'quvchilarda kichik tadqiqotlarni olib borish, muammoni qo'yish, ilmiy farazni ilgari surish, yechimlarni izlash, qaror qabul qilish va umumiy xulosalarga kelish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. Ushbu metod yetarli darajada murakkab materiallarni o'zlashtirishda qo'l keladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
2. M.Ochilov. "Yangi pedagogik texnologiyalar" ma'ruzalar matni. 2000.
3. Azizxodjayeva N.H. "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat". – T.: TDP. 2003.
4. Xoliqov A "Pedagogik mahorat". – T.: Iqtisod – moliya. 2010.
5. Tolipov O'. "Pedagogik texnologiya" – T.: Fan. 2005.
6. P.M.Po'latova. Oligofrenopedagogika. – T.: 2001.
7. Po'latova F. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). – T.: 2007.
8. Забрамная С.Д. Психолого-педагогическая диагностика умственно отсталого развития детей. – М.: 1995.
9. Замский Х.С. Умственно отсталые дети. История их изучения, воспитания и обучения с древних времен до середины XX в. – М.: 1995.
10. Катаева А.А. Стреблева Е.А. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников. Книга для учителя. – М.: 1993.
11. Raxmonova V.S. Maxsus pedagogika. – T.: G'ofur G'ulom. 2004.